




TECH SCIENCE

ISSN 3030-3702

**TEXNIKA FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL
SCIENCES**



№ 9 (3) 2025

TECHSCIENCE.UZ

№ 9 (3)-2025

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES
OF TECHNICAL SCIENCES**

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

KARIMOV ULUG'BEK ORIFOVICH

TAHRIR HAY'ATI:

Usmankulov Alisher Kadirkulovich - Texnika fanlari doktori, professor, Jizzax politexnika universiteti

Fayziyev Xomitxon – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Rashidov Yusuf Karimovich – texnika fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Adizov Bobirjon Zamirovich– Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti;

Abdunazarov Jamshid Nurmuxamatovich - Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Umarov Shavkat Isomiddinovich – Texnika fanlari doktori, dotsent, Jizzax politexnika universiteti;

Bozorov G'ayrat Rashidovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Maxmudov Muxtor Jamolovich – Texnika fanlari doktori, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti;

Asatov Nurmuxammat Abdunazarovich – Texnika fanlari nomzodi, professor, Jizzax politexnika universiteti;

Mamayev G'ulom Ibroximovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Jizzax politexnika universiteti;

Ochilov Abduraxim Abdurasulovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB**

MASALALARI elektron jurnali
15.09.2023-yilda 130343-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.
Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Barcha huqular himoyalangan.

© Sciencesproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

Xo'jayev Otabek, Ro'zmetova Zilola

MA'LUMOTLARNI INTELLEKTUAL TAHLIL QILISH USULLARI: MASHINAVIY O'QITISH,
CHUQUR O'RGANISH VA BASHORAT MODELLARI TAHLILI 4-7

Matchonov Shohrux, Asatov Timur

MASHINALI O'QITISH MODELLARI UCHUN BELGILAR FAZOSINI SHAKLLANTIRISH
YONDASHUVI 8-13

Elov Botir, Amirkulov Ma'rufjon, Suyunova Malika

O'ZBEK-INGLIZ PARALLEL KORPUSIDA METAMA'LUMOTLAR VA FORMATLASH MASALASI
HAMDA O'ZBEK TILI UCHUN MAVJUD NLP VOSITALARI..... 14-21

Jurayev Mansurbek, Khashimov Akhmad

DEVELOPING A NEW MODEL OF CLUSTERING NODES WITH THE HELP OF IOT
PROTOCOLS..... 22-30

Ортиков Элбек

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМ КОНТРОЛЯ РАСХОДА ГАЗА В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПЕЧАХ
ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ 31-36

Ismailova Zumrad, Anarbaev Anvar, Vaxidov Umid

ISSIQXONADA HARORAT-NAMLIK REJIMINI BOSHQARISH 37-41

Eshmamatov Arslonbek

YASSI QUYOSH HAVO KOLLEKTORLARIDA TO'SIQ-TURBULIZATORLAR YORDAMIDA
ISSIQLIK-GIDRODINAMIK JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH ILMIY ASOSLARI..... 42-48

Chuyanov Dustmurod, Bo'riyev Muhriddin, Fayziyev To'xtamurod

AVTOTRANSPORT TARMOG'I KORXONALARINI LOYIHALASHDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR..... 49-54

Abdirazakov Akmal, Boyqobilova Mahliyo

GAZ VA GAZKONDENSAT QUDUQLARINI TA'MIRLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH
USULLARI TAHLILI..... 55-62

**AVTOTRANSPORT TARMOG'I KORXONALARINI LOYIHALASHDA
ZAMONAVIY YONDASHUVLAR****Chuyanov Dustmurod Shodmonovich**

Texnika fanlari doktori (t.f.d.)

Qarshi davlat texnika universiteti professori

Email: dchuyanov1@mail.ru

Tel: +998 91 214 83 38

ORCID:0000-0003-0330-1848

Bo'riyev Muhridin Dehqon o'g'li

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Email: boriyev.muhridin@mail.ru

Tel: +998 97 200 03 93

ORCID: 0009-0007-3108-5245

Fayziyev To'xtamurod Zulfiqor o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti stajiyor o'qituvchisi

Email: toxtamurodfayziyev3@gmail.com

Tel: +998 90 007 34 37

ORCID: 0009-0009-7109-1230

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash masalalari, ularning samaradorligini oshirishda innovatsion yechimlar, ishlab chiqarish quvvatlarini optimal joylashtirish, servis va texnik xizmat ko'rsatish infratuzilmasini shakllantirishning ilmiy asoslari yoritilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ekalogik, transport, transport-logistika, avtopark, korxona, elektromobil, gibrid.

**MODERN APPROACHES TO THE DESIGN OF MOTOR TRANSPORT
ENTERPRISES****Chuyanov Dustmurod Shodmonovich**

Doctor of Technical Sciences (DSc)

Professor at Karshi State Technical University

Buriev Muhridin Dehkon ogli

PhD in Technical Sciences

Associate Professor, Karshi State Technical University

Fayziyev Toxtamurod Zulfikor ogli

Intern Lecturer at Karshi State Technical University

Annotation. This article discusses the issues of designing motor transport enterprises, highlights innovative solutions to improve their efficiency, optimal placement of production capacities, as well as the scientific foundations for the formation of service and maintenance infrastructure.

Keywords: integration, ecological, transport, transport logistics, motor fleet, enterprise, electric vehicle, hybrid.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ts-v3i9y2025No8>

XXI asrda transport tizimi mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Transport xizmatlari samaradorligi ishlab chiqarish jarayonlari, tashqi iqtisodiy aloqalar, aholining turmush darajasi hamda hududlararo integratsiya rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, avtotransport tarmog'i korxonalarini zamonaviy talablarga mos tarzda loyihalash masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi [1, 3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlarda transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, ichki va tashqi transport aloqalarini mustahkamlash, aholiga sifatli transport xizmatlarini taqdim etish masalalari alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, avtotransport korxonalarini raqamli texnologiyalar asosida qayta tashkil etish bo'yicha qator vazifalar belgilangan [2].

Avtotransport korxonalarini loyihalashda hududiy joylashuv, ishlab chiqarish quvvatlari, servis xizmatlari, texnik baza, yo'lovchi va yuk tashish parklarining tarkibi kabi me'zonlarni chuqur ilmiy asosda o'rganish zarur [1, 3]. Ayniqsa, logistika markazlari va servis infratuzilmasining optimal joylashtirilishi transport tizimining umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalashda ilmiy asoslangan yondashuvlarni tahlil qilish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini yoritish hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, maqola quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1. Avtotransport korxonalarining o'rni va vazifalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish;
2. Korxonalarni loyihalashda asosiy me'zon va tamoyillarni ko'rsatib berish;
3. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ochib berish;
4. Amaliy tajriba asosida samarali yechimlar ishlab chiqish.

Shu tariqa, maqola mavzusi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etib, mamlakat transport tizimining yanada rivojlanishiga xizmat qilishi kutilmoqda.

Avtotransport tarmog'i – zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim bo'g'ini bo'lib, ishlab chiqarish jarayonlarini uzluksiz davom ettirish, aholining transportga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va hududlararo aloqalarni rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi [4]. Mamlakat ichida ham, xalqaro miqyosda ham yuk va yo'lovchi tashish xizmatlarining asosiy qismi avtomobil transporti orqali amalga oshiriladi. Shu bois avtotransport korxonalari samarali faoliyat yuritishi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Avtotransport korxonalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Yuk tashish xizmatlarini ko'rsatish. Sanoat, qishloq xo'jaligi va savdo sohasi uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni yetkazib berishda avtomobil transporti muhim rol o'ynaydi.

Tezkorlik, moslashuvchanlik va kichik partiyalarni tashish imkoniyati avtomobil transportining boshqa transport turlaridan ustunligini belgilab beradi.

Yo'lovchi tashish xizmatlarini tashkil etish. Aholining turmush tarzini yaxshilash, mehnat resurslarining harakatchanligini ta'minlash va turizm sohasini rivojlantirishda avtotransport tarmog'ining ulushi yuqori. Shahar ichida avtobus va mikroavtobuslar, shuningdek, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlardagi transport vositalari orqali ko'plab fuqarolarga qulaylik yaratiladi.

Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash. Avtotransport korxonalarining muhim yo'nalishlaridan yana biri – transport vositalarini samarali ishlashini ta'minlashdir. Texnik xizmat ko'rsatish, diagnostika va ta'mirlash ishlarining sifatli yo'lga qo'yilishi transport tizimining barqaror faoliyat yuritishini kafolatlaydi.

Logistik xizmatlarni amalga oshirish. So'nggi yillarda avtotransport korxonalari nafaqat tashish, balki logistika jarayonlarini ham o'z ichiga qamrab olmoqda. Omborxona xo'jaligi, yuklarni saralash va qayta yuklash, bojxona xizmatlari kabi qo'shimcha xizmatlar korxonalar faoliyatida alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash. Transport tizimi atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Shu sababli, avtotransport korxonalari ekologik me'yorlarga rioya qilgan holda faoliyat yuritishi, chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni kengaytirishi zarur. Shuni alohida ta'kidlash joizki, avtotransport korxonalari iqtisodiy barqarorlik va aholining ijtimoiy himoyasi bilan uzviy bog'liqdir. Masalan, tovar-moddiy boyliklarning o'z vaqtida yetkazilmasligi ishlab chiqarish zanjirida uzilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, transport korxonalarining ilmiy asoslangan holda loyihalash va samarali boshqarilishi milliy iqtisodiyot rivojida strategik vazifani bajaradi.

Avtotransport korxonalarini loyihalashda asosiy me'zonlar. Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash jarayoni murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, u texnik-iqtisodiy, hududiy, ekologik va tashkiliy omillarni o'z ichiga oladi. To'g'ri loyihalangan korxona nafaqat samarali transport xizmatlarini ko'rsatadi, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi aloqadorlikni kuchaytiradi.

Korxonalarni loyihalashda quyidagi asosiy me'zonlarga e'tibor qaratish lozim: Hududiy joylashuv hamda Avtotransport korxonalarining geografik joylashuvi ularning samaradorligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir.

Korxona: yirik sanoat markazlari va logistika tugunlariga yaqin bo'lishi, magistral avtomobil yo'llari, temir yo'l stansiyalari va aeroportlarga qulay ulanish imkoniyatiga ega bo'lishi, shahar ichida esa aholiga xizmat ko'rsatishda qulay transport oqimlarini hisobga olgan holda joylashtirilishi zarur. Loyihalashda avtoparkning hajmi va tur tarkibini aniqlash muhim masalalardan biridir. Bunda: yo'lovchi tashish uchun avtobus, mikroavtobus va maxsus transport vositalarining soni, yuk tashishda yengil yuk mashinalari, yuk avtoulavlari, maxsus texnikalar, transport vositalarining ishlab chiqarish quvvatiga, ekologik ko'rsatkichlariga va yoqilg'i turiga mosligi hisobga olinadi. Har qanday transport korxonasining samarali faoliyat yuritishi texnik xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liq. Shu sababli, korxonani loyihalashda: texnik xizmat ko'rsatish sexlari, diagnostika uskunalari, ehtiyot qismlar omborlari va servis infratuzilmasi mavjudligi ta'minlanishi lozim. Xavfsizlik va ekologik talablar avtotransport korxonalarida xavfsizlik choralarini ko'rish ham muhim hisoblanadi. Loyihalash bosqichida: yo'l harakati xavfsizligi, yong'inga qarshi himoya, ekologik standartlarga mos chiqindi gazlarni

kamaytirish texnologiyalari joriy etilishi kerak. Iqtisodiy samaradorlik korxona loyihasining iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali baholanadi:

1. Transport vositalarining foydalanish koeffitsiyenti,
2. Tashilgan yuk va yo'lovchi hajmi,
3. Xizmat ko'rsatish xarajatlari va foyda darajasi,
4. Investitsiya loyihalarining qaytish muddati.

Yuqoridagi korxona loyihasining iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarudan kelib chiqib, innovatsion yechimlar va raqamli texnologiyalar qo'llash mumkin:

GPS va telematika orqali real vaqt monitoringi.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.

Sun'iy intellekt asosida texnik xizmat ko'rsatishni prognozlash.

Avtotransport sohasida innovatsion texnologiyalar ta'sirini quyidagi 1-jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

№	Texnologiya	Afzalliklari	Natija
1	GPS-monitoring	Harakatni kuzatish, nazorat	Yo'nalishlarni optimallashtirish
2	IoT (aqlli sensorlar)	Avtomobil texnik holatini nazorat qilish	Nosozliklarni oldindan aniqlash
3	Sun'iy intellekt	Ma'lumotlarni tahlil qilish	Samarador boshqaruv

Shunday qilib, avtotransport korxonalarini loyihalashda yuqoridagi me'zonlarni hisobga olish ularning barqaror faoliyatini ta'minlaydi va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Avtotransport korxonalarini loyihalashda zamonaviy yondashuv bugungi kunda avtotransport korxonalarini loyihalash jarayonida an'anaviy usullar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, ekologik me'yorlarga mos innovatsion yechimlar va transport vositalarining yangi avlod turlaridan foydalanish keng qo'llanilmoqda. Raqamli texnologiyalarni qo'llash loyihalash jarayonida GIS (Geoinformatsion tizimlar) va CAD (Computer-Aided Design) dasturlaridan foydalanish keng tarqalmoqda. GIS yordamida transport oqimlari, aholining joylashuvi, logistika markazlari va yo'l tarmoqlarini matematik modelashtirish mumkin.

Transport oqimining zichligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = NTQ = \frac{N}{T}Q = TN$$

bu yerda: Q – transport oqimi zichligi (mashina/soat), N – ma'lum vaqt ichida o'tgan avtomobillar soni, T – vaqt oralig'i (soat).

Mazkur ko'rsatkich transport oqimlarining barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Ekologik talablarga mos loyihalash bu avtotransport korxonalarini loyihalashda atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish eng muhim me'zonlardan biridir. So'nggi yillarda elektromobillar va gibrid transport vositalari uchun maxsus servis bazalari tashkil etish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shuningdek, chiqindi gazlarni kamaytirish uchun ekologik ko'rsatkich emissiya indeksi hisoblab chiqiladi:

$$E = MLE = \frac{M}{L}E = LM$$

bu yerda: E – emissiya ko'rsatkichi (g/km), M – transport vositasidan ajraladigan zararli modda massasi (gr), L – bosib o'tilgan masofa (km).

Transport vositalari oqimini quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q = (N \times V \times K) / T$$

bu yerda: **Q** - soatlik transport oqimi (transport birligi/soat); **N** - kunlik transportlar soni; **V** - o'rtacha tezlik (km/soat); **K** - transport zichlik koeffitsienti; **T** - ish vaqti (soat).

Innovatsion transport vositalarini qo'llash yangi loyihalarda quyidagi transport turlaridan foydalanish taklif qilinmoqda: elektromobillar va gibrid avtobuslar, vodorod yoqilg'isida ishlovchi transport vositalari, aqlli boshqaruv tizimiga ega avtoulavlar.

Ushbu transport vositalari nafaqat ekologik xavfsiz, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. An'anaviy va zamonaviy loyihalash usullarining taqqoslanishini quyidagi 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-Jadval

№	Me'zoni	An'anaviy yondashuv	Zamonaviy yondashuv (innovatsion)
1	Joylashuv	Yo'l tarmoqlariga yaqinlik	GIS va matematik modellashtirish
2	Avtoparkni aniqlash	Statistik prognoz	Sun'iy intellekt asosidagi prognoz
3	Texnik xizmat ko'rsatish	Mexanik sexlar	Avtomatlashtirilgan servis bazalari
4	Ekologik ko'rsatkich	Yoqilg'i sarfi asosida	Emissiya indeksi hisoblash
5	Investitsiya samaradorligi	An'anaviy tahlil	Raqamli modellashtirish va "Big Data" asosida

Avtotransport tarmog'i korxonalarini ilmiy asoslangan holda loyihalash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida, logistika tizimining samaradorligini oshirishda va aholiga sifatli transport xizmatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda zamonaviy avtotransport korxonalarini loyihalash an'anaviy usullardan farqli ravishda quyidagi ustunliklarga ega bo'ladi:

1. **Ekologik barqarorlik** - atrof-muhitga minimal ta'sir;
2. **Texnologik innovatsiyalar** - sun'iy intellekt va IoT;
3. **Energiya samaradorligi** - qayta tiklanadigan energiya manbalari;
4. **Iqtisodiy samaradorlik** - uzoq muddatli tejamkorlik.

Kelajakda avtotransport tarmoqlarini loyihalashda raqamlashtirish, avtonom tizimlar va barqaror energiya manbalaridan foydalanish kengayib boradi. Avtotransport korxonalari ishlab chiqarish zanjiri va ijtimoiy infratuzilmaning ajralmas qismi bo'lib, ularning samaradorligi mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ular quyidagicha:

1. Korxonalarni loyihalashda hududiy joylashuv, avtopark tarkibi, texnik xizmat ko'rsatish bazasi, xavfsizlik va ekologik talablarni inobatga olish zarur.

2. Zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar (GIS, CAD, Big Data)dan foydalanish, ekologik toza transport vositalari uchun maxsus servis markazlarini tashkil etish va innovatsion transport vositalarini qo'llash ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

3. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda elektr avtobuslar va logistika markazlari joriy qilinmoqda. Xorijiy davlatlarda esa raqamli boshqaruv, ekologik toza transport va aqlli logistika tizimlari keng qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy texnologik yondashuvlar asosida loyihalangan korxonalarda: ishlab chiqarish samaradorligi 20–25% ga oshadi; texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari 15% gacha kamayadi; ekologik chiqindilar hajmi 30% ga qisqaradi; texnologik jarayonlarning avtomatlashtirish darajasi 50% dan ortiqni tashkil etadi. Bu esa loyihalashda raqamli yechimlarni qo'llashning iqtisodiy va ekologik samaradorligini isbotlaydi.

Demak, avtotransport korxonalarini loyihalashda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va aholiga qulay transport xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov A. Transport logistikasi asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
2. Smith J. Modern Transport Infrastructure Design. – London: Routledge, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport-logistika tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari va farmonlari.
4. Xodjayev M. Avtomobil transporti iqtisodiyoti. – Toshkent: TDYIU nashriyoti, 2019.
5. European Commission. Sustainable and Smart Mobility Strategy. – Brussels, 2020.
6. Japan Transport Bureau. Eco-friendly Transport Infrastructure in Japan. – Tokyo, 2021.
7. World Bank Report. Green Logistics and Transport Development. – Washington DC, 2022.

TECHSCIENCE.UZ

**TEXNIKA FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 9 (3)-2025

TOPICAL ISSUES OF TECHNICAL SCIENCES

**TECHSCIENCE.UZ- TEXNIKA
FANLARINING DOLZARB MASALALARI**
elektron jurnali 15.09.2023-yilda 130346-
sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassislar: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati;
Jizzax politexnika insituti.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy.

Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com